

ERTAK TERAPIYASI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN'S SPEECH
THROUGH FAIRY TALE THERAPY

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА
ПОСРЕДСТВОМ СКАЗКОТЕРАПИИ

Mamurova Mushtari Maxammadjanovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: mmmamurova@gmail.com

Abdullayeva Husnida Abbosjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishda ertaklarning o'rni va ahamiyati atroflicha tahlil etiladi. Ertaklar bolaning dunyoqarashi, estetik didi hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, uning so'z boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolada ertaklarni pedagogik jarayonga maqsadga muvofiq integratsiya qilish usullari hamda bu orqali bolalarning muloqotga kirishish faolligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, ertaklar vositasida bolaning emotsional holati, hissiy olami va axloqiy sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ham asoslab beriladi. Tadqiqotda bolalarning yosh xususiyatlari, psixologik holati va individual jihatlarini inobatga olgan holda ertak tanlash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Dialogik nutq, maktabgacha ta'lim, og'zaki nutqni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, so'z boyligi, milliy qadriyatlar, barkamol shaxs.

Annotation: This article comprehensively analyzes the role and significance of fairy tales in the formation of oral speech in preschool children. Fairy tales serve as an effective means of expanding vocabulary, mastering grammatical structures, and developing communication skills, while also contributing to the development of a child's worldview, aesthetic taste, and creative thinking. The article highlights methods for the purposeful integration of fairy tales into the pedagogical process, as well as methodological approaches aimed at increasing children's communicative activity through fairy tales. In addition, the possibilities of developing a child's emotional state, inner world, and moral qualities through fairy tales are substantiated. The study also provides practical recommendations for selecting fairy tales taking into account children's age characteristics, psychological condition, and individual traits.

Keywords: Dialogic speech, preschool education, development of oral speech, communicative competence, interactive methods, innovative approaches, vocabulary, national values, harmoniously developed personality.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются роль и значение сказок в формировании устной речи детей дошкольного возраста. Сказки, наряду с развитием мировоззрения ребенка, эстетического вкуса и творческого мышления, служат эффективным средством расширения словарного запаса, усвоения грамматических конструкций и формирования коммуникативных навыков. В статье освещаются методы целесообразной интеграции сказок в педагогический процесс, а также методические подходы, направленные на повышение активности детей в процессе общения посредством сказок. Кроме того, обосновываются возможности развития эмоционального состояния, внутреннего мира и нравственных качеств ребенка с помощью сказок. В исследовании приводятся практические рекомендации по выбору сказок с учетом возрастных особенностей, психологического состояния и индивидуальных качеств детей.

Ключевые слова: Диалогическая речь, дошкольное образование, развитие устной речи, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, инновационные подходы, словарный запас, национальные ценности, гармонично развитая личность.

Bugungi raqamlashtirish jarayoni tobora kuchayib borayotgan bir davrda, bolalarda ogʻzaki nutqni rivojlantirish, samarali muloqot koʻnikmalarini shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda milliy va maʼnaviy qadriyatlarni singdirish orqali ijtimoiy ong va kommunikativ kompetensiyani yuksaltirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, bu jarayonda ertaklardan foydalanish – bolalarning tasavvuri, estetik dunyoqarashi va soʻz boyligini rivojlantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktabgacha taʼlimning katta yosh bosqichidagi bolalarning nutqni zamonaviy va innovatsion metodik yondashuvlar asosida, xususan, ertaklar orqali shakllantirish, ularning lugʻat boyligini interfaol va ijodiy uslublar bilan kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha taʼlim davrida bolalarga sifatli taʼlim berish, ertaklar asosidagi turli metodikalardan foydalanib, ona tilidagi ogʻzaki nutqini rivojlantirish – natijada esa ular tengdoshlari va kattalar bilan erkin muloqot qila oladigan, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishini taʼminlash ustuvor maqsadlardandir. Bola nutqini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida ertaklarning tutgan oʻrni beqiyosdir. Ertaklar nafaqat bolaning soʻz boyligini oshiradi, balki ularni tinglash, tushunish, savol berish, javob qaytarish hamda fikr bildirish kabi asosiy kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa ogʻzaki muloqot asosida qurilgan ertak

mazmuni bola nutqini mustahkamlashda, muloqot madaniyatini o'zlashtirishda va fikrni izchil hamda mantiqan ifoda etish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqiy rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida boglanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir"¹. Bolaning nutqiy rivoji va muloqotga kirishish salohiyati, asosan, mazmunan boy va ifodali og'zaki nutq orqali namoyon bo'ladi. Bunday ravon nutq o'zining mantiqlilik, izchillik va mazmunlilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu ko'nikmalarining shakllanishi, avvalo, bolaning o'zlashtirgan so'z boyligi va lug'aviy zahirasiga, shuningdek, uning intellektual, estetik va emotsional rivojlanish darajasiga bog'liqdir. R.I.Lalayeva va N.V.Serebryakova ta'kidlaydilar: "Maktabgacha yosh davrida bolaning nutq shaklini badiiy asarlar bilan rivojlantirish muhimdir. Butun maktabgacha davr davomida bolalarda dialog tuzish (javob berish, savol berish, e'tiroz bildirish, tushuntirish, javob qaytarish) ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Buning uchun bolalar bilan bolalar bog'chasidagi hayoti, oilasi, kattalar va do'stlari bilan munosabatlari, taassurotlari va qiziqishlariga oid turli mavzularda suhbatlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega"².

Dono xalqimiz "Ertaklar-yaxshiliklar yetaklar" deb bejiz aytishmagan. Ertaklar bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarni jo qilishda, ularning ma'naviy olamine boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqat-e'tibori, tafakkuri rivojlanadi. Ertaklarni tinglash til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boladagi ayrim nutqiy kamchiliklarni hikoya va ertaklar eshitish, she'r yodlatish, shuningdek so'zlarni to'g'ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali bartaraf etish mumkin. Ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu xislatlarni tarbiyalash, insoniy fazilatlarni targ'ib etish, ular o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish kerak. Jumladan, hayvonlar haqidagi "Tulkining taqsimoti"³ ertagida ayyorlik va tilyog'lamalik tulki obrazi orqali ifodalangan. "Uch og'a-ini botirlar"⁴ ertagi ota nasihati bilan boshlanadi. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar namoyon bo'ladi. Tarbiyachi tomonidan ertak o'qib bo'lingach, bolalarni umumiy xulosa chiqarishga undash lozim. "Agar sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding?" kabi

¹ Леонтьев А. Н. Психологические вопросы сознательности учения // Известия АПН РСФСР. – Москва, 1947. – Вып. 7. – С. 69-70.

² Лалаева Р. И., Серебрякова Н. В. Формирование правильной разговорной речи у дошкольников. – Ростов н/Д: Феникс, СПб: Союз, 2004. – Б. 42-43.

³ O'zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. – Toshkent: Fan, 2007. – J. I. – 416 s.

⁴ O'zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. – J. II. – 400 s.

savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga yordam beradi. Har bir ertakning o‘z g‘oyasi bor. “Sehrli sholg‘om”⁵ ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma-ket aytishga undab, “kuch birlikda” degan g‘oyani anglab yetishini ta‘minlasa, “Zumrad va Qimmat”⁶ ertagida Zumradning mehnatsevarligi ulug‘lanadi. Qimmat esa dangasa, ishyoqmas sifatida gavdalanadi. Bolalar ertakni tinglash orqali qissadan hissa chiqarishga o‘rgatiladi. Shuningdek, ertaklarni mahorat bilan bolalarga o‘qib berish, kichkintoy bilan his-hayajonli muloqotni o‘rnatishga, sezdirmay tarbiyaviy ta‘sir qilishga, atrof-muhit haqidagi bilimi va ma‘lumot zaxiralarini samarali to‘ldirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ertaklardan maqsadli va tizimli foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ertaklarni muntazam tinglash, qayta hikoya qilish hamda ular asosida savol-javoblar tashkil etish bolalarning so‘z boyligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi. Ayniqsa, dialogik nutqni shakllantirish jarayonida ertak qahramonlari o‘rtasidagi suhbatlar va voqealar ketma-ketligini ifodalash bolalarning erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Mashg‘ulotlar davomida bolalarning muloqotga kirishish faolligi ortgani, savollarga mustaqil javob berishga intilishi hamda voqealarni izchil bayon etish malakalari shakllangani kuzatildi. Ertaklar asosida tashkil etilgan interfaol metodlar, xususan, rolli o‘yinlar, sahnalashtirish, “savol-javob”, “davom ettir” kabi usullar bolalarda ijodiy fikrlash va nutqiy faollikni rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Tahlillar natijasida ertaklar bolalarning nafaqat nutqiy, balki emotsional va axloqiy rivojlanishiga ham samarali ta‘sir etishi aniqlandi. Bolalar ertak qahramonlari misolida yaxshilik va yomonlikni farqlash, do‘stlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik kabi insoniy fazilatlarini anglab yetishga harakat qildilar. Bu esa ularning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda ertaklardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ertaklar bolalarning so‘z boyligini oshirish, dialogik nutqini shakllantirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri va izchil fikr bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ertaklar bolaning tafakkuri, tasavvuri, emotsional dunyosi va ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida ertaklarni interfaol metodlar asosida tashkil etish bolalarning muloqotga kirishish faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashga undashi hamda erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini shakllantirishi kuzatildi. Ayniqsa, sahnalashtirish, savol-javob va rolli o‘yinlardan foydalanish bolalarning nutqiy faolligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Shuningdek, ertaklar orqali bolalarda insoniy fazilatlar – mehr-oqibat, do‘stlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik va yaxshilik kabi axloqiy

⁵ O‘zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. – Toshkent: Fan, 2007. – J. I. – 416 s.

⁶ O‘zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. – Toshkent: Fan, 2007. – J. III. – 384 s.

sifatlarni shakllantirish imkoniyati keng ekanligi asoslandi. Bu esa ertaklarning nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Kelgusida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklardan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hamda bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos ertaklarni tanlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев А. Н. Психологические вопросы сознательности учения // Известия АПН РСФСР. – Москва, 1947. – Вып. 7.
2. Лалаева Р. И., Серебрякова Н. В. Формирование правильной разговорной речи у дошкольников. – Ростов н/Д: Феникс, СПб: Союз, 2004.
3. O'zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. – Toshkent: Fan, 2007. – J. I. – 416 s.
4. O'zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. – J. II. – 400 s.
5. O'zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. – Toshkent: Fan, 2007. – J. III. – 384 s.